

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NAZIROV KUDRAT YULDASHEVICH

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING SHAXSIY
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Nazirov Kudrat Yuldashevich

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning
psixologik xususiyatlari.....3

Назирова Кудрат Юлдашевич

Психологические особенности развития личностных качеств слушателей в
процессе повышения квалификации.....21

Nazirov Kudrat Yuldashevich

Psychological features of the development of personal qualities of the audience in the
process of professional development.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NAZIROV KUDRAT YULDASHEVICH

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING SHAXSIY
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/P954 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxtarova Aziza Erkinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Safarov Dilmurod Xalimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025- yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kadrlarning kasbiy mas'uliyati, kasbiy tashabbuskorligi va intellektual salohiyati kabi xususiyatlarning shakllanganlik darajasi ta'lim sifatini bevosita belgilovchi indikatorlardandir. Bu borada ta'lim sifatini oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ustuvor bo'lib, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. TALIS (Teaching and Learning International Survey) ¹ ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlardagi o'rtacha 88 % o'qituvchilar o'tgan bir yil davomida kamida bitta malaka oshirish yoki professional rivojlanish dasturida qatnashar ekanlar va ularning 65% dan ortig'ining e'tirof etishicha, pedagoglar o'zlarining shaxsiy kasbiy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan trening yoki seminarlarni eng foydali deb baholashgan. Dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar, inklyuziv ta'lim va innovatsion uslubiyotlar tez sur'atlarda joriy etilayotgani tufayli, o'qituvchining kasbiy shaxsiy sifatlaridan ijodiy yondashuv, emotsional intellekt, muammolarni hal qilish, va hamkorlik ko'nikmalari – zamonaviy ta'limning hal qiluvchi komponentlari sifatida dolzarb ahamiyatli bo'lib, bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni olib borish zarurati yuzaga keladi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida malaka oshirish jarayoni tinglovchilarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ularning mas'uliyat, fidoyilik, empatiya, hamkorlik, innovatsion fikrlash kabi pedagogik-psixologik xususiyatlarini yuksaltirish borasida muayyan darajada ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Xalqaro Pedagogik Innovatsiyalar Tadqiqoti (ITEER) ² tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko'ra, izchil va maqsadli rejalashtirilgan malaka oshirish dasturlari o'qituvchilarning professional ko'nikmalarini 30-35% ga yaxshilashi bilan birga ularning akademik ko'rsatkichlarini ham sezilarli ravishda oshirishiga ta'sir etishi muqarrarligi isbotlangan. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish bo'yicha yuqori natijaga ega Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya davlatlarida pedagoglarning professional rivojlanish strategiyasiga shaxsiy kompetensiyalarni mustahkamlash yo'nalishi kiritilgan. Ushbu davlatlarda o'qituvchilarning yillik malaka oshirish jarayonida psixologik-pedagogik dasturlar salmog'i 20-30% ni tashkil etadi. Bu borada malaka oshirish faoliyatiga qo'yiladigan talablar, pedagoglarning kasbiy, shaxsiy va intellektual salohiyatini oshirish xususiyatlari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyatli bo'lib, uni bosqichli olib borish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralib, mazkur yo'nalishdagi ishlarini amalga oshirishning zarur me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi: «...Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida... ularning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish...» ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, o'qituvchilarni zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi sifatida tayyorlash, mustaqil

¹ <https://www.oecd.org/>

² <https://unevoc.unesco.org/>

fikrlaydigan, innovatsion kompetentlikka ega kadrlar etib tayyorlash jarayonini sifat bosqichiga ko'tarish, ular faoliyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ustuvor vazifalar sifatida amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son «Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi», 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarida hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, I.X.Arifxodjayeva, N.D.Ahmedova, I.I.Hojiboyev, J.X.Mavlonov, Z.T.Nishanova, E.M.Muxtorov, R.N.Melibayeva, D.U.Mamadiyarova, A.E.Turaxanov va boshqalar malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini, kognitiv jarayonlarini rivojlantirishga doir muammolarning ba'zi jihatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, P.Y.Galperin, I.V.Dubrovina, A.N.Leontev, Y.A.Konarjevskiy, Y.N.Kiryanova, L.V.Mishenko, V.E. Paxalyan, A.V.Yegorov, Y.P.Ermolaeva, L.S.Vigotskiy, O.V. Xuxlyayeva va boshqalar tadqiqotlarida malaka oshirish jarayoni samaradorligiga ta'siri masalalarini ilmiy-amaliy o'rganishgan.

Xorij psixolog olimlaridan A. Bandura, P.Berger va T.Lukman, D.Kolb, D.Super, L.B.Shneyder, E. Shchein, Dj. Xolland va boshqalar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik sifatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy tadqiq etishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy

pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Psixologiya tarixini o‘rganish, umumiy psixologiya mazmunini o‘zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o‘rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konsptual asoslarini tadqiq qilish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi shaxsiy sifatlarini mehnat tajribasiga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishining dinamik xususiyatlarini tadqiq etish;

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatlarini hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyasiga ta’sirini aniqlash;

pedagoglarning muloqot uslubini malaka oshirish jarayoni tinglovchilarining shaxs sifatlariga bog‘liq jihatlarini tadqiq etish;

malaka oshirish tinglovchilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari jarayoni tanlangan bo‘lib, tadqiqotga Toshkent viloyatidan 70 nafar, Buxoro viloyatidan 50 nafar va Qashqadaryo viloyatidan 30 nafar, jami 150 nafar Xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rstayotgan va malaka oshirishga kelgan pedagog kadrlar tinglovchilar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, intervyu metodlaridan, shuningdek, V.Smekal va M.Kucheralarning «Shaxs yo‘nalganligini aniqlash», Dj.Amirxanning «Shaxsning hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyasini aniqlash», «Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash» hamda «Pedagogik muloqot uslublari» metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchlik darajasi matematik-statistika metodlaridan foizli tahlil, K.Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezoni orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatleri kasbiy faoliyatda mustaqillik, o‘ziga ishonch, kasbiy moslashuvchanlik, refleksiya, divergent fikrlashni mehnat tajribasiga bog‘liq rivojlanishiga asoslanib, professional faoliyatdagi muvaffaqiyatni ta’minlovchi yetakchi omil ekanligi isbotlangan;

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatleri o‘ziga bo‘lgan ishonch va vaziyatga standart yondashuv muammodan qochish, emosional holatda o‘zini boshqara olish ko‘nikmasi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishga intilish pozisiyasini, individual xususiyatlardagi qaramlik va kasbiy rigidlik esa muammodan qochish pozisiyasini kuchli ifodalanishiga olib kelganligi tufayli pedagogning hayotiy qiyinchiliklarga

qarshi kurashish strategiyasini differensial namoyon bo'lishiga olib kelishi isbotlangan;

pedagoglarning muloqot uslubi o'zaro munosabatlardagi demokrativ uslub kasbiy moslashuvchanlikni, kreativ fikrlashni, mustaqillik sifatlarini kuchli ifodlanishiga olib kelishiga asoslanib malaka oshirish jarayonida shaxs sifatlarini differensial namoyon bo'lishiga ta'sir etishi aniqlashtirilgan;

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli pedagoglarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, o'zini konstruktiv tanqidiy baholash, kasbiy moslashuvchanlik xususiyatlari va faoliyatga nisbatan kreativ yondashuvni shakllantirish muhimligi tuafyli ta'limni tashkil etishda motivasion, reflektiv, interaktiv mexanizmlarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

malaka oshirish tinglovchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlariga ta'sir etuvchi omillarga asoslanib, uning namoyon bo'lishini prognoz qilish imkoniyati yaratilgan;

malaka oshirish tinglovchilarning pedagogik muloqot uslublari takomillashtirilib, ulardagi kasbiy kompetensiyani oshirishga erishilgan;

malaka oshirish tinglovchilarining kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga doir psixologik treninglar ishlab chiqilgan va amaliyotga aqprobatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni aniq qo'yilganligi, tanlangan metodikalarning validligi, to'planning reprezentativligi, natijalarning ishonchliligi, qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi (korrelyatsion tahlil, Styudentning t-mezoni) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati malaka oshirish tinglovchilarining kasbiy shaxsiy sifatleri omillarini tadqiq qilish mexanizmlari ishlab chiqilganligi, o'rganilayotgan muammoni ilmiy jihatdan ochib berish va pedagoglar sohasida kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda, malaka oshirish tinglovchilarining kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida qo'llash mumkin bo'lishining nazariy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati malaka oshirish tinglovchilarining kasbiy shaxsiy sifatlarini samaradorligiga ta'sir etuvchi psixologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tayyorlangan samarali trening dasturini qo'llash imkoniyati bilan belgilanib, dissertatsiya ishi natijalaridan pedagoglarni o'qitishda, «Kasbiy psixologiya», «Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya», «Umumiy psixodiagnostika», «Ijtimoiy psixologiya» fanlari bo'yicha o'quv dasturi, o'quv adabiyotlarini yaratishda, malaka oshirish tinglovchilarini o'qitishda va malakasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatleri kasbiy faoliyatda mustaqillik, o'ziga ishonch, kasbiy moslashuvchanlik, refleksiya, divergent fikrlashni

mehnat tajribasiga bog'liq rivojlanishiga asoslanib professional faoliyatdagi muvaffaqiyatni ta'minlovchi yetakchi omil ekanligi isbotlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-359-son buyrug'i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-359 a-son ma'lumotnomasi). Natijada malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi shaxsiy sifatlarni mehnat tajribasiga bog'liq ravishda namoyon bo'lishining dinamik xususiyatlarini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatlari o'ziga bo'lgan ishonch va vaziyatga standart yondashuv muammodan qochish, emosional holatda o'zini boshqara olish ko'nikmasi ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga intilish pozitsiyasini, individual xususiyatlardagi qaramlik va kasbiy rigidlik esa muammodan qochish pozitsiyasini kuchli ifodalanishiga olib kelganligi tufayli pedagogning hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyasini differensial namoyon bo'lishiga olib kelishi isbotlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-359-son buyrug'i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-359a-son ma'lumotnomasi). Natijada malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatlarini hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyasiga ta'sirini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

pedagoglarning muloqot uslubi o'zaro munosabatlardagi demokrativ uslub kasbiy moslashuvchanlikni, kreativ fikrlashni, mustaqillik sifatlarini kuchli ifodlanishiga olib kelishiga asoslanib malaka oshirish jarayonida shaxs sifatlarini differensial namoyon bo'lishiga ta'sir etishi aniqlashtirilgan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-359-son buyrug'i bilan «Muloqot psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-359 a-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagoglarning muloqot uslubini malaka oshirish jarayoni tinglovchilarining shaxs sifatlariga bog'liq jihatlari ochib berilgan;

malaka oshirish tinglovchilarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli pedagoglarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, o'zini konstruktiv tanqidiy baholash, kasbiy moslashuvchanlik xususiyatlari va faoliyatga nisbatan kreativ yondashuvni shakllantirish muhimligi tuafyly ta'limni tashkil etishda motivasion, reflektiv, interaktiv mexanizmlarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-359-son buyrug'i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-359a-son ma'lumotnomasi). Natijada malaka oshirish tinglovchilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot asosi natijalari bo'yicha 8 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi tavsiflangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqot usullari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tadbiiq etilganlik holati, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Malaka oshirish jarayoni tinglovchilarida kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida tinglovchilarning kasbiy shaxsiy sifatleri namoyon bo'lishi va rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning nazariy tahlili amalga oshirilgan. Shu boisdan ham mazkur bobda kasbiy shaxsiy sifatlar muammosi bo'yicha xorij olimlari hamda mamlakatimiz psixologlarining mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari umumlashtirilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan kasbiy shaxsiy sifatlar borasida bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G.Y.Ayzenk, Dj.Raven, D.Goulman, E.F.Zeer, V.A.Kan-Kalik, D.G.Mayers, G.U.Olport, J.F.Piaje, A.D.Palmer, A.A.Rean, K.R.Rodjers R.Torndayk, G.Gardner, J.Mayer va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

MDH olimlaridan A.A.Bodalev, Y.K.Babanskiy, N.A.Kuzmina, LA.K.Markova, L.M.Mitina, E.A.Mileryan, Z.A.Reshetova, S.L.Rubinshteyn, N.V.Samoukina, V.D.Shadrikov. P.A.Shavir va boshqalar kasbiy sifatlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekiston psixolog olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, F.F.Ganjiyev, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, G'.A.Normurodov, A.A.Rasulov, Sh.Sh.Rustamov, N.S.Safoyev, R.S.Samarov, B.M.Umarov, L.Y.Olimov, D.A.Sobirova, G.Sh.Salomova, I.M.Xaydarov va boshqalar kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosiga oid tadqiqotlar olib borgan.

Dissertatsiyaning «**Malaka oshirish jarayoni tinglovchilarida kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning empirik xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

1-jadvalda "Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash metodikasi" bo'yicha olingan natijalar keltirilga.

“Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash metodikasi” natijalari, (n=150)

Omillar		5 yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar	5 yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar	t
		N=70	N=80	
		M1	M2	
I omil	Qaramlik	4,5	2,7	-2,1
	Mustaqillik	3,1	5,0	-2,4
II omil	O‘ziga ishonch	3,7	5,3	-2,7
	O‘zini tanqidiy baholash	5,4	5,8	-1,3
III omil	Kasbiy qotib qolish	3,6	3,8	-1,8
	Kasbiy moslashuvchanlik	3,1	5,2	-2,6
IV omil	Proeksiya	4,1	3,8	-1,3
	Refleksivlik	3,4	5,4	-2,7
V omil	Steretotiplilik	3,5	3,2	-1,2
	Improvizatsiya	4,1	4,8	-1,9
VI omil	Kasbiy ishonchsizlik	3,6	3,2	-1,4
	Kasbiy o‘zligini anglash	3,7	5,6	-2,4
VII omil	Past o‘zini baholash	5,4	3,8	-2,1
	Yuqori o‘zini baholash	3,6	5,6	-2,5
VIII omil	Konvergent fikrlash	4,1	5,0	-1,6
	Divergent fikrlash	3,6	5,7	-2,8
IX omil	Sabrsizlik	2,4	0,2	-2,3
	O‘zini boshqara olish	0,8	2,3	-2,7
X omil	Standart yondashuv	4,6	5,2	-1,0
	Ijodiy yondashuv	4,1	5,6	-1,4

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

“Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash metodikasi” bo‘yicha olingan natijalar tahliliga ko‘ra, “qaramlik” ($t=2,1$; $p \leq 0,05$), “mustaqillik” ($t=2,4$; $p \leq 0,05$), “o‘ziga ishonch” ($t=2,7$; $p \leq 0,05$), “kasbiy moslashuvchanlik” ($t=2,6$; $p \leq 0,05$), “refleksivlik” ($t=2,7$; $p \leq 0,05$), “kasbiy o‘zligini anglash” ($t=2,4$; $p \leq 0,05$), “past o‘zini baholash” ($t=2,1$; $p \leq 0,05$), “yuqori o‘zini baholash” ($t=2,5$; $p \leq 0,05$), “divergent fikrlash” ($t=2,8$; $p \leq 0,05$), “sabrsizlik” ($t=2,3$; $p \leq 0,05$) hamda “o‘zini boshqara olish” ($t=2,7$; $p \leq 0,05$) omillarida har ikkala respondentlar guruhida ishonchli farqlar qayd etildi.

Metodikaning dastlabki “qaramlik” omiliga ko‘ra, besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan malaka oshirish tinglovchilarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=2,1$; $p \leq 0,05$). Bu esa ularning malaka oshirish jarayonida rahbarlar yoki ustozlarga tayanish ehtiyojining kuchli ekanidan darak beradi. Shu holatda, dastlabki kasbiy shakllanish bosqichida boshqalarning ko‘magi va tavsiyalariga suyanish tinglovchining ishga tez moslashishiga yordam beradi, chunki u o‘z faoliyatiga ishonchsizroq yondashishi mumkin. Qaramlik omili me‘yoridan ortiq bo‘lsa, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi rivojiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi ham inobatga

olinishi lozim, chunki xodim o'zidan ko'ra ustozlarga ko'proq ishonch bildiradi.

Navbatdagi "mustaqillik" omili bo'yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan malaka oshirish tinglovchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Ushbu omil kasbiy shakllanishda tobora katta ahamiyat kasb etib, xodimning jamoadagi mustaqil ishtirokini ta'minlash, ijodkorona yondashuvni qo'llab-quvvatlash va mas'uliyat hissini kuchaytirish uchun sharoit yaratadi. Mustaqillik, o'z mohiyatiga ko'ra, xodimning o'z ishiga bo'lgan egalik tuyg'usini qat'iyilashtirishi, yutuq va kamchiliklarni o'z zimmasiga olish orqali rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Quyidagi "O'ziga bo'lgan ishonch" omili bo'yicha ish tajribasi besh yildan ortiq bo'lgan tinglovchilarda yuqori natijalar qayd etildi ($t=2,7$; $p\leq 0,05$). Avvalo, murakkab vazifalarni bajargan, faoliyati davomida xatolar va yutuqlarni tahlil qilgan mutaxassislarda xulosa chiqarish ko'nikmasi rivojlanadi hamda ishning ijobiy jihatlariga e'tibor ortadi.

Metodikaning navbatdagi "kasbiy moslashuvchanlik" omili bo'yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan malaka oshirish tinglovchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,6$; $p\leq 0,05$). Malaka oshirish mashg'ulotlari davomida turli ish uslublarini o'rganib chiqish, ilg'or tajribalarni tahlil qilish va jamoa bilan interaktiv hamkorlik qilish xodimlarning moslashuvchanlik darajasini yanada oshiradi. Yangilanib borayotgan texnologiyalar, raqobat muhitidagi tezkor o'zgarishlar va doimiy isloh sifatida kechadigan kasbiy jarayonlar mutaxassislar oldiga yuqori talablar qo'yadi, shu bois moslashuvchanlik katta ahamiyat kasb etadi.

"Refleksivlik" omiliga oid tahlillar besh yildan ortiq tajribaga ega tinglovchilarda yuqori ko'rsatkichni ($t=2,7$; $p\leq 0,05$) belgilab bergan bo'lib, bu xodimlarning o'z faoliyatiga teran nazar bilan qarashi, xatolarni tahlil qila olishi va malaka oshirish jarayonida refleksivlikning o'sishi avvalo tinglovchining o'z malakasiga tanqidiy nazar tashlab, shaxsiy kamchiliklari ustida ishlashi orqali kasbiy bilimlarini boyitishi uchun muhim poydevor yaratadi.

"Kasbiy o'zligini anglash" omili bo'yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan malaka oshirish tinglovchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Ushbu omilning yuqori bo'lishi xodimda kasbiy maqsadlar, motivatsion holat va qiymat tizimining mukammal shakllanganini ko'rsatib, uning mehnat samaradorligiga ham bevosita ta'sir etadi.

"Yuqori o'zini baholash" omili bo'yicha besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega tinglovchilarda yuqori natijalar ($t=2,5$; $p\leq 0,05$) qayd etilgani ular ilgari egallangan tajribaga tayanib, o'z salohiyatini yuqori darajada baholashga moyil ekanini anglatadi. Kasbiy faoliyat davomida erishilgan yutuqlar, xatolarni yengib o'tish jarayonida orttirilgan saboqlar va professional muhitda to'plangan tajriba xodimning o'zida mustahkam ishonch shakllantirishi mumkin.

"Divergent fikrlash" omilining besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega tinglovchilarda yuqori ekanligi ($t=2,8$; $p\leq 0,05$) kasbiy kreativitet, fleksi6il fikrlash va o'ziga xos yechimlar topa olish qobiliyatining shakllanganini ko'rsatadi. Yaratuvchan yondashuvga ega bo'lgan bu xodimlar turli vaziyatlarga yangicha qarash, mavjud jarayonlarni qaytadan tahlil qilish va noodatiy usullarni qo'llab ko'rish orqali mehnat

samaradorligini oshirishi mumkin.

“Sabrsizlik” omili bo‘yicha esa, besh yilgacha mehnat tajribasiga ega tinglovchilarda yuqori natijalar ($t=2,3$; $p\leq 0,05$) kuzatilgani ularning ish jarayonida tezkor o‘zgarishlarni kutishi, shoshqaloqlik bilan qaror qabul qilishi yoki qisqa muddatlarda katta natijaga erishishga intilishi mumkinligini anglatadi.

“O‘zini boshqara olish” omili bo‘yicha besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega tinglovchilarda yuqori natijalar ($t=2,7$; $p\leq 0,05$) qayd etilgani ularning professional faoliyatda o‘z his-tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini va vaqtni boshqara olish qobiliyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

2-jadval

“Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash metodikasi” va «Shaxsning hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyasini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar, (n=150)

Omillar	Muammoni yechish	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga moyillik	Muammodan qochish
Qaramlik	0,13	0,06	-0,36*
O‘ziga ishonch	0,34*	0,08	0,24
Kasbiy qotib qolish	0,10	0,22	-0,38*
Proeksiya	0,18	0,18	0,16
Steretotiplilik	0,15	0,15	0,12
Kasbiy ishonchsizlik	0,14	0,09	0,08
Past o‘zini baholash	0,21	0,17	0,05
Konvergent fikrlash	0,10	0,18	0,12
O‘zini boshqara olish	0,13	0,35*	0,19
Standart yondashuv	0,32*	0,13	0,15

“Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash metodikasi” hamda «Shaxsning hayotiy qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyasini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra, “qaramlik” omili “muammodan qochish” ($r=-0,36$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy, “o‘ziga ishonch” omili “muammoni yechish” ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, “kasbiy qotib qolish” omili “muammodan qochish” ($r=-0,38$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy, “o‘zini boshqara olish” omili “ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga moyillik” ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, “standart yondashuv” esa “muammoni yechish” ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy bog‘lanishlar qayd etildi.

“Qaramlik” omilining “muammodan qochish strategiyasi” bilan salbiy bog‘liqligi ($r=-0,36$; $p\leq 0,05$) shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va mas’uliyatni his qilish qobiliyati past ekanida, u qiyinchiliklarga duch kelganida ulardan qochishga ham moyil bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday holat shuni anglatadiki, qaramlik darajasi yuqori bo‘lgan tinglovchilar muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil harakat qilish o‘rniga doim boshqalardan yordam kutishlari va tashqi ta’sirlarga haddan tashqari bog‘lanib qolishlari mumkin. Agar ular o‘z oldilarida turgan qiyinchiliklarni o‘zlari hal qilmaslikni odat qilib olishsa, muammolardan qochish strategiyasini ham qo‘llay olmasdan, passiv holatga tushib qolishadi. Bunday shaxslar uchun tashqi

nazorat va boshqaruv yetarlicha bo'lmasa, ular umuman tashabbus ko'rsatmay, har qanday mas'uliyatni zimmasiga olishdan voz kechishadi. Malaka oshirish jarayonida bunday tinglovchilar yangi bilimlarni o'zlashtirishda sust bo'lishlari, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga nisbatan befarq munosabatda bo'lishlari ham mumkin.

“O'ziga ishonch” omili “muammoni yechish strategiyasi” bilan ijobiy bog'langanligi ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) shaxsning o'z salohiyatiga ishonishi qiyinchiliklarga bardosh berish va ularni konstruktiv hal qilishga moyilligini oshirishini anglatadi. Tinglovchilarda ichki ishonch hissi shakllangani sari murakkab vaziyatlarda ijodiy yondashuv va qat'iylik ustun kelib, ular muammolarga doimiy ravishda yechim topishni afzal ko'rishadi. Bunday xodimlar malaka oshirish jarayonida o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib, real ish sharoitida yuzaga keladigan to'siqlarni imkoniyat sifatida qabul qiladi, shu orqali o'z professional darajasini muntazam ravishda yuksaltirib boradi. Muammolarni aniqlash va ularga aniq strategiyalar ishlab chiqish chog'ida o'ziga ishonchning balandligi analitik fikrlash va tezkor qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlashi, ish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Agar ishonch hissi yetarli bo'lmasa, xodimlar muammoni yechish o'rniga uni paydar-pay chetga surishga yoki uchinchi shaxslardan haddan tashqari ko'p yordam kutishga moyil bo'lishadi. Shu sababli, malaka oshirish treninglarida o'ziga ishonchni tarbiyalashga e'tibor berish, tinglovchilarning kasbiy shaxs sifatida to'laqonli shakllanishlari uchun ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

“Kasbiy qotib qolish” omilining “muammodan qochish strategiyasi” bilan salbiy bog'liqligi ($r=-0,38$; $p\leq 0,05$) shaxsning o'z kasbiy faoliyatida eskirgan va unumdorlikni pasaytiruvchi uslublardan voz kechmayotganini, shu bilan birga, hatto jiddiy muammolarga duch kelganida ham ulardan chekinishga urinishdan ko'ra, o'zining sustkashligini davom ettirishga moyilligini ko'rsatadi. Kasbiy qotib qolgan tinglovchilar innovatsion yondashuvlarni qo'llashdan tiyilish bilan birga, mavjud muammolarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan yangi usullarni ham rad etadilar, bu esa ularning professional rivojlanishini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Bunday shaxslar an'anaviy ishlash usullariga qattiq bog'lanib qolganligi sababli, har qanday yangilikni qabul qilishni istamaydi va hatto ularning natijadorligi past bo'lsa ham, eski usullarni qo'llashni davom ettirishga intilishadi. Malaka oshirish jarayonida ular yangi bilimlarni o'zlashtirishga passiv yondashishi, taklif etilayotgan metodik innovatsiyalarga shubha bilan qarashi va pedagogik jarayonni takomillashtirishga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Natijada, bunday mutaxassislar muammolarni yengib o'tish va o'z faoliyatini samarali yo'lga qo'yish o'rniga, professional faoliyatida ortga siljish kuzatiladigan holatga tushib qolishadi.

“O'zini boshqara olish” omilining “ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga moyillik strategiyasi” bilan ijobiy bog'liqligi ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) shaxsning ruhiy barqarorligi va boshqalardan yordam olish istagi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'kidlaydi. Malaka oshirish jarayonida o'zini boshqara olish qobiliyati mustahkam bo'lgan xodimlar, odatda, stress yoki murakkab holatlar yuz berganda ham atrofdagilar bilan sog'lom muloqotni yo'lga qo'yib, jamoaviy ko'makdan oqilona foydalanishga harakat qilishadi. Bunday shaxslar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, vaziyatni real baholash va muammoni birgalikda bartaraf etish orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini samarali tarzda shakllantiradi. Ushbu ijobiy bog'liqlik pedagogik jamoa ichida saviyali muloqot va o'zaro

hamdardlikni vujudga keltirib, tinglovchilarning kasbiy shaxs sifatida puxta shakllanishini ta'minlaydi.

“Standart yondashuv” omilining “muammoni yechish strategiyasi” bilan ijobiy bog‘liqligi ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) an’anaviy yoki berilgan ko‘rsatmalarga tayangan holda vazifalarni bajarish ham samarali muammolarni hal qilishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Malaka oshirish jarayonida standart yondashuvning afzalligi shundaki, xodimlar haddan tashqari ijodiy qarorlardan cho‘chib o‘tirmasdan, tasdiqlangan amaliy ko‘rsatmalar yoki modellarga asoslanib, muammoga ehtiyotkorona yechim topishga intiladi. Bu xildagi strategiya xodimlarning ishonchli me‘yorlar bilan ishlashi, tajribali rahbarlar yoki murabbiylar ko‘magi bilan tasdiqlangan metodlarni tatbiq etish, hattoki murakkab bo‘lib ko‘ringan holatlarda ham bosqichma-bosqich yondashuvni qo‘llashdir. Bunday holda muammoni hal qilish jarayoni juda ijodkorona bo‘lmasligi mumkin, biroq barqarorlik va ishonch omillari kuchli bo‘lib, vaziyat boshqaruvini qo‘ldan boy bermaslik imkonini beradi. Shu sabab, malaka oshirish davomida standart yondashuvning ijobiy jihatlarini rivojlantirish, xodimlarning muammolarni amaliy tajriba va rasmiy ko‘rsatmalar yordamida izchil tartibda hal qilishida foydali ekani ayon bo‘ladi.

3-jadvalda “Pedagogning kasbiy sifatlarini baholash metodikasi” hamda “Pedagogik muloqot uslublari” metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalari berilgan. Unga ko‘ra, “mustaqillik” omili “avtoritar uslub” ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, “kasbiy moslashuvchanlik” omili “demokratik uslub” ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, “ijodiy yondashuv” omili “liberal uslub” ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy bog‘lanishlar aniqlandi.

3-jadval

